
5-Mavzu Nutq nuqsoniga ega bolalar diqqat xususiyatlari

Reja:

1. Diqqat haqida tushuncha.

2. Nutq nuqsoniga ega bolalarning diqqat xususiyatlari.

3. Nutq nuqsoniga ega bolalar diqqat xususiyatlarini rivojlantirish.



Tayanch iboralar: Diqqat**,** ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqat**,** o‘zgaruvchanlik, faoliyat**,** duduqlanish**,** sistemali nutq kamchiliklari**,** psixologik va fiziologik jarayonlar.

Diqqat - bu inson ongini ma’lum bir vaqtda bir ob’ektda to‘planishi va unga yo‘naltirilishidir. Zarur ma’lumotni tanlanishi, tanlangan dastur asosida xatti-harakatlarning ta’minlanishi va ularni nazorat qilinishi diqqatdir. Diqqat insonlarda turlicha bo‘lib, bir vaqtda, turli vaziyat, turli xususiyatlar va shu bilan birga psixik jarayonlarni kechishi bilan turlicha namoyon bo‘ladi. Diqqatni xarakterlab uni turli xususiyatlarga ajratish mumkin:

- diqqatning konsentrasiyasi (jamlanganligi, to‘planganligi) ,
- diqqatning intensivligi(kuchi),
- diqqatning taqsimlanishi,
- diqqatning hajmi,
- diqqatning barqarorligi, davomiyligi,
- diqqatning ko‘chishi .

Shuningdek, diqqatning yana quyidagi xususiyatlarini farqlash mumkin:

Diqqatning kuchi:

- Konsentrasiya (jamlanganlik, to‘planganlik) - diqqat doimo aniq ob’ektga to‘planadi. Masalan: qiziqarli kitobni o‘qish jarayoni.
- Faoliyatning har xil turlarida diqqat xilma-xil intensivlikda (tezlikda) kechadi. Masalan: talabani predmetga imtihonlardan oldin va keyingi diqqati.

Diqqatning kengligi - uning hajmi va taqsimlanishiga bog‘liqdir. Diqqatning hajmi bir vaqtning o‘zida diqqat markazida bo‘lishi mumkin bo‘lgan ob’ektlar soni bilan xarakterlanadi. Unda asosan narsalarni tez va chuqur tushunish mumkin.

Diqqatnining dinamikasi



Diqqatning uch turi mavjud:



Ixtiyorsiz diqqat- irodaga zo‘r bermaslik va ongli maqsadni ko‘zlamagan holda yuzaga keladi. Ko‘p hollarda yangi, rangdor, yorqin, hajmli, harakatlanuvchi, emosionalligida qarama-qarshi farq bo‘lgan narsalar ixtiyorsiz diqqatni yuzaga keltiradi.

Ixtiyoriy diqqat- maqsad va irodaga zo‘r berishga asoslangandir. Ixtiyoriy diqqatda biror-bir ob’ektga diqqat ongli ravishda yo‘naltiriladi, sub’ekt tomonidan boshqariladi, ammo bunday diqqat jarayonida irodaga zo‘r beriladi va u ko‘p energiyani talab etadi.

Ixtiyoriydan so‘ngi diqqat- muvaffaqiyatli faoliyat uchun diqqatning nihoyatda to‘planganligi bilan xarakterlanadi va u o‘quv faoliyatida muhimdir.

Diqqatning rivojlanish jarayoni A.Leontevning ta’kidlashicha, bola ulg‘aygan sari diqqati ortadi, lekin tashqi diqqatni namoyon bo‘lishi ichkiga nisbatan tezdir.

Diqqat – ayrim predmet va hodisalarning bir vaqtda boshqalardan ajratib olishni ta’minlovchi inson psixik faoliyatining xususiyati.

Diqqatning asosiy vazifalari:

- ayni vaqtda psixologik va fiziologik kerakli jarayonlarni faollashtirish va keraksizini to‘xtatish;

- ehtiyojlariga ko‘ra kelib tushayotgan ma’lumotni tashkiliy va maqsadli tanlab olishga yordam berish;
- bir xil ob’ekt yoki faoliyat turlarida psixik faoliyatning tanlanuvchi va uzoq bir yerga to‘planishini ta’minlash.

Inson diqqati besh xil asosiy xossalarga ega: turg‘unlik, to‘planganlik, yo‘naltirish, taqsimlash va ko‘lamlilik.

Diqqatning **turg‘unligi** ma’lum bir ob’ekt, faoliyat predmetiga chalg‘imasdan uzoq vaqt ichida qarash xususiyatida namoyon bo‘ladi.

Diqqatning **to‘planganligi** (qarama-qarshi xislat parishonlik) bir xil ob’ektlarga diqqatini qaratish va boshqalaridan ongida mavjud bo‘lgan farqlarda namoyon bo‘ladi.

Diqqatning **yo‘naltirilishi**, qaratilishi uni bir ob’ektdan boshqasiga, bir faoliyat turdan o‘zga turga ko‘chirilishi sifatida tushuniladi. Diqqatning yo‘naltirilishi funksional ravishda ikki xil turli yo‘nalishdagi jarayon bilan bog‘liq: diqqatning qaratilishi va bo‘linishi.

Diqqatni **taqsimlash** uni bir vaqtning o‘zida bir necha obyektlarga qaratish, parallel ravishda bir necha faoliyat turini bajarish qobiliyatidan iborat.

Diqqat **ko‘lamliligi** odamning yuqori diqqatligida (ongida), bir vaqtda saqlanishga qobiliyatli ma’lumotning miqdori bilan aniqlanadi.

Ma’lum belgilarga ko‘ra diqqatning turlari:

1. Predmet, faoliyat materialiga ko‘ra:
- sensor-perseptiv;
- intellektual;
- harakatlantiruvchi;

2. Yo‘nalganligiga ko‘ra:
- tashqi;
- ichki.

3. Aks ettirilgan (ta’sir qilingan) bog‘liqlik va munosabatlar xususiyatiga ko‘ra:

- emperik;

- nazariy.

4. Yetakchi analizatorga ko‘ra:

- ko‘rish;

- eshitish;

- kinestetik.

Bevosita diqqat xech narsa bilan boshqarilmaydi. Inson qiziqishlari va ehtiyojlariga to‘g‘ri keladigan ob’ektga qaratilgan diqqat bundan mustasno. Namoyon bo‘ladigan diqqat – maxsus vositalar yordamida, masalan imo-ishoralar, so‘zlar, ko‘rsatish belgilari bilan boshqariladi.

Ixtiyorsiz diqqat-iroda ishtiroki bilan bog‘liq emas. Ixtiyoriy diqqat – iroda orqali boshqarilishini o‘z ichiga oladi.

Hissiy diqqat - hissiyot va sezish a’zolari tanlanishi bilan bog‘liq.

Diqqat sezilarli darajada yoshga ko‘ra o‘zgaradigan asosiy yuqori asab faoliyati jarayonlari rivojlanishi darajasiga bog‘liq.

Bola hayotining birinchi yilida qandaydir vaqt ichida u yoki bu predmet bilan shug‘ullanishi mumkin, biroq bunda uning diqqati xali turg‘un emas. Beixtiyor diqqat shakllanishining boshlang‘ich davri shu bilan tavsiflanadiki, bola rang-barang narsalarni ko‘rib, baland tovushlarni eshitib, vaqt o‘tishi bilan yanada sust, sekin tanish bo‘lgan qo‘zg‘atuvchilarga e’tibor berishni boshlaydi.

2 yoshga borib u narsalarni ko‘rib chiqib, qo‘li bilan boshqarib, uzoq vaqt ularda diqqatini to‘playdi. Bu yoshda bolaning nutqqa ega bo‘lish bilan bog‘liq bo‘lgan ixtiyoriy diqqat belgilari yuzaga keladi.

3-4 yoshda bolalar ko‘pgina predmet va hodisalar bilan qiziqishni boshlaydi, kattalarni diqqat bilan eshitadi, soatlab ular ishini kuzatadi va o‘zlari o‘z oldiga muayyan vazifalarni qo‘yishga qobiliyatli bo‘ladi. Ularning diqqati bir joyga to‘plangan bo‘lishi mumkin, biroq hali ham yetarli darajada turg‘un bo‘la olmaydi.

Katta maktabgacha bo‘lgan yoshda diqqat turg‘unligi ancha oshib boradi.

Biroq bolalar hali uni yaxshi boshqara olmaydi. Ular uzoq vaqt qandaydir predmetni qidira olmaydi, diqqatini to‘play olmaydi. Ixtiyoriy diqqat maktabgacha yoshda hali sust rivojlangan va bolaning faoliyati uning rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi, bular kattalar ishini bajarish hamda o‘yin o‘ynashdan iborat. O‘yin uni kuzatuvchanlikka, muayyan qoidalarni bajarishga o‘rgatadi, irodasini tarbiyalaydi.

Maktabdagi o‘qish, bilimlarini egallash jarayoni – bularning barchasi kichik maktab yoshida o‘quv faoliyatida yuzaga keladigan qiziqishlar natijasida, xususan o‘quv mashg‘ulotlariga bo‘lgan qiziqish asosida rivojlanadigan beixtiyor diqqatning tezda o‘sishiga yordam beradi. U materialning yorqinligi, uning ko‘rgazmaliligi va aniqligi, bola hissiy sohasiga bo‘lgan ta’siriga nihoyatda bog‘liq.

Nutqida kamchiligi bo‘lgan bolalar diqqatining o‘ziga xosligi

Nutq nuqsoniga ega bolalar diqqati bir qator xususiyatlar bilan xarakterlanadi. Beqarorlik, ihtiyoriy diqqat ko‘rsatkichlarining past darajada bo‘lishi, o‘z harakatlarini rejalashtirishdagi qiyinchiliklar ularga xosdir.

Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarda diqqat xususiyatlari. NTR bolalarda ihtiyoriy diqqat chalg‘uvchan bo‘lib, nutqi normal rivojlangan bolalar vazifani qanchalik to‘g‘ri bajarayotganliklarini pedagog ularning reaktsiyalariga qarab bilishga harakat qilsalar, nutq patologiyasiga ega bolalarning diqqati chalg‘uchan bo‘lganligi sabab “derazaga qarash” yoki “vazifaga taaluqli bo‘lmagan ishlar qilish” bilan kechadi. Og‘ir nutq buzilishlari bor bolalarda ihtiyoriy diqqat past darajada bo‘lib, faoliyatdagi harakatning buzilishi yoki uning shakllanmasligiga olib keladi.

Dizartriya nutq nuqsonining yengil turida diqqat jarayoni normadan ko‘ra pastroq. Diqqat ko‘chishida ham past daraja kuzatiladi. Diqqat barqarorligi va ko‘chishidagi buzilishlar bosh miya po‘stlog‘ida asosiy nerv jarayonlari (qo‘zg‘alish va tormozlanish) ning etarlicha harakatchan emasligi bilan bo‘gliq. Dizartriyali bolalarda topshiriq bajarishning oxiriga borib ish qobiliyati pasayadi. Bu esa diqqat jarayonining tez charchashidan dalolat beradi. Biroq ishning boshlang‘ich bosqichlarida diqqat mahsuldorligi (konsentratsiyasi) yosh normasiga mos bo‘ladi.

Diqqat barqarorligi bolalarda o‘rtacha, deb baholanadi. Diqqatning hajmi yosh normasidan past ko‘rsatkichga ega.

Bradilaliyada diqqat jarayonlari sekinlashadi, diqqatni bir ob’ektdan ikkinchisiga ko‘chishi qiyin kechadi.

Taxilaliyada nutqiy diqqat zararlanadi, u beqarorlik, kuchli ko‘chuvchanlik va diqqat hajmining etarlicha emasligi bilan xarakterlanadi.

Duduqlanuvchi bolalar diqqati klinik simptomatikaga bo‘gliq bo‘ladi.

Nevrotik duduqlanishda o‘z nutqiga va atrofdagilarni unga nisbatan ko‘rsatadigan reaktsiyalariga diqqatni qaratish yuqori. Biroq nutqdagi xatolarni to‘g‘rilash ayrim bolalarda mavjud emas.

Nevrotik duduqlanishda diqqat xususiyatlari bosh miyaning zararlanishi mavjudligi bilan bog‘liq. Diqqat yuzakiligi, konsentratsiya va ko‘chish xususiyatlaridagi qiyinchiliklar bilan xarakterlanadi. Ba’zi duduqlanuvchilarda eshituv diqqatining buzilishi ham kuzatiladi.

Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarning diqqat xususiyatlari tavsifi.

Diqqatning beqarorligi, ixtiyoriy diqqatning past darajasi va ularning harakatlarini rejalashtirishdagi qiyinchiliklar ularga xos xususiyatlardir. Bolalar sharoitlarni tahlil qilish va muammolarni hal qilishning turli usullari va vositalarini izlashda qiyinchiliklarga duch keladilar.

Ixtiyoriy diqqatning namoyon bo‘lishidagi farqlar (vizual yoki eshituv) diqqatiga qarab aniqlanadi: nutq patologiyasi bo‘lgan bolalar uchun vizual ko‘rsatmalarga qaraganda og‘zaki ko‘rsatmali topshiriqni bajarishga diqqat qaratish ancha qiyin. Birinchi holda, raqamlarning rangi, shakli va joylashuvi bo‘yicha qo‘pol farqlashning buzilishi bilan bog‘liq xatolar ko‘proq kuzatilgan.

Usanova, **Yu.F. Garkusha** (1985) tajribasiga ko‘ra, alaliya nutq nuqsoniga ega maktabgacha yoshdagi bolalarning diqqati topshiriqni bajarish vaqtida pasayish xususiyatiga ega. Ularda diqqat og‘ishlari butun ish davomida namoyon bo‘lib, o‘z kamchiliklarini sezmaydilar va bartaraf etishga urinmaydilar. Ulardagi xatolarning

tabiati va vaqt bo‘yicha taqsimlanishi normadan farqlidir. Olingan natijaga ko‘ra asosan pedagogning qo‘shimcha yordami bilan ko‘rsatmalarni takrorlash, topshiriqni bajarishda namunaga tayanish va aniq ko‘rsatmalar asosida topshiriqni bajarishda pedagogning doimiy yordami talab etilishi kuzatilgan. Ushbu bolalarda ixtiyoriy diqqat xususiyatlari chalg‘uvchan xarakterda bo‘lib, topshiriqni bajarishda vazifaga bog‘liq bo‘lmagan harakatlarni bajaradi, masalan olmani savatga sol ko‘rsatmasi berilganda olmani olib og‘ziga oboradi va yeyishga urinadi. Bu bolalarda ixtiyoriy diqqat normadan past shakllanganligi ularning faoliyatida sezilarli darajada nuqsonli kechishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, nutqida nuqsoni bor bolalarda yosh normasi bilan taqqoslanganda bilish faoliyati, uning tarkibiga kiruvchi jarayonlardan diqqatning pasayishini ko‘rish mumkin.

Quyida bolalarda diqqatni diagnostika qilish metodikalaridan namunalar keltiramiz.

Diqqatning barqarorligini diagnostika qilish usuli.

Usulning nomi: Shulte jadvali texnikasi.

Usul muallifi: Valter Shulte.

Metodikaning maqsadi: diqqatning barqarorligi va ishlash dinamikasini aniqlash. Usulning tavsifi: sinaluvchiga beshta jadval taklif etiladi, ularda 1 dan 25 gacha bo‘lgan raqamlar tasodifiy tartibda joylashtirilgan, sinaluvchi o‘sib borish tartibida raqamlarni qidirib topadi, ko‘rsatadi va aytadi. Tajriba besh xil jadval bilan takrorlanadi.

9	5	11	23	20
14	25	17	19	13
16	21	7	3	1
18	12	6	24	4
22	15	10	2	8

14	18	7	24	21
22	1	10	9	6
16	5	8	20	11
23	4	25	3	15
19	13	17	12	2

21	12	7	1	20
6	15	17	3	18
19	4	8	25	13
24	2	22	16	5
9	14	11	23	10

6	1	18	22	14
12	10	15	3	25
2	20	5	23	13
16	21	8	11	24
9	4	17	19	7

Ko‘rsatmalar: "Ushbu jadvalda 1 dan 25 gacha raqamlar betartib berilgan. 1 dan 25 gacha o‘sib borish tartibida barcha raqamlarni ko‘rsating va nomlang. Buni iloji boricha tez va xatosiz bajarishga harakat qiling. Jadval ochiladi va vazifa boshlanishi bilan bir vaqtning o‘zida sekundomer ishga tushiriladi”.


Jadvallarning har biri bilan ishlash vaqti belgilanadi. Natija tahlili: jadvallarning har biri uchun ish vaqti taqqoslanadi. Norma 1 stol uchun 30-50 soniya. O‘rtacha norma 40-42 sekund. Odatda, jadvallarning har biri taxminan bir xil vaqtni oladi.


Peron-Rouzer sinovi.

Muallif: Peron-Rouzer.

Maqsad: diqqatning konsentratsiya darajasini aniqlash.

Sinovga oid ko‘rsatmalar: "Sizga kvadrat, uchburchak, aylana va romb tasvirlangan test taklif etiladi." Ishga tushirish "signalida quyidagi belgilarni iloji boricha tezroq va ushbu geometrik shakllardagi xatolarsiz joylashtiring: kvadrat - plyus, uchburchakda - minus, aylana shaklida - rombusga hech narsa qo‘ymang - nuqta. Belgilarni bir qatorga joylashtiring. Ish vaqti 60 sekundni tashkil etadi. "To‘xtang!" signalida belgi qo‘yishni to‘xtating".






Natijalarni qayta ishlash va tahlil qilish:


Ushbu test natijalari quyidagicha: 60 sekund ichida taklif etilgan geometrik figuralar ham aylanani, ham xatolar sonini hisobga olgan holda sonini aniqlash. Konsentratsiya darajasi jadval bilan belgilanadi.Topshiriq davomida yo‘l qo‘yilgan xatolar uchun ball pasaytiriladi. Agar 1-2 xato bo‘lsa, u holda daraja bittaga

kamayadi, agar 3-4 - ikki darajaga bo‘lsa, diqqatning kontsentratsiyasi yomonroq deb hisoblanadi va agar 4 martadan ko‘proq xato bo‘lsa, uchinchi daraja bo‘ladi.


“Eslab qol va nuqtalarni qo‘y” metodi.



“Top va belgila” metodi



„SHAKLLARNI TOP’’ METODI



Nutqi rivojlanmagan bolalar uchun diqqat-e’tiborning qator xususiyatlar xos, bular: o‘zgaruvchanlik, erkin e’tiborning past darajadagi ko‘rsatkichlari, o‘z harakatlarini rejalashtirishdagi qiyinchiliklar. Bolalar masalani hal qilishda turli usul va vositalarni qidirib, qiyinlik bilan diqqat-e’tiborlarini to‘playdilar.

Nutqida kamchiligi bo‘lgan bolalarda ko‘rish sharoitiga qaraganda vazifani so‘z qo‘llanmasi sharoitida bajarish uchun, diqqat-e’tiborini to‘plash ancha og‘ir.

Birinchi marta, rangi, shakli, figuralarning joylashishiga ko‘ra farq qilishda qo‘pol buzilishlar bilan bog‘liq xatolarning soni ko‘pligi kuzatiladi.

Nutqning to‘liq rivojlanmaganligi (quyida NTR deb ko‘rsatilgan) maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda faoliyat tezligining barqarorligi ish jarayonida intilishni pasayishiga olib keladi.

Nutqida kamchiligi bo‘lgan bolalarda diqqat-e’tiborni nutq va amaliy harakat o‘rtasida bo‘lishi, amalda bajarib bo‘lmaydigan qiyin vazifa hisoblanadi. Shu bilan birga ularda oydinlashtirish va ta’kidlash fe’lidagi nutq qarshiliklari ustun keladi, unda nutqi sog‘rivojlangan bolalardagi kabi murakkab qarshiliklar kuzatuvidagi fe’lda va shu paytda bajarilayotgan harakatga bog‘liq bo‘lmagan qarshiliklar kuzatiladi.

NTR bolalarda diqqat-e’tibor xatolari butun ish davomida kuzatiladi va doimo mustaqil e’tibor qilinmaydi. Xatolar va ularning o‘z vaqtida bo‘linishi me’yordan farqlanadi.

Faoliyat ustidan nazoratning hamma ko‘rinishlari (avvalgi, hozirgi, keyingi) tez shakllanmagan yoki ancha buzilgan bo‘ladi, shu bilan birga vazifa shartlarini tahlili bilan bog‘liq bo‘lgani uchun, ko‘proq vazifani bajarish jarayonida turi qiynchiliklar yuzaga keladi. Keyingi nazorat (natijalar bo‘yicha nazorat), uning ayrim belgilari asosan pedagogning qo‘shimcha yordami orqali ko‘rinadi: qo‘llanmani takrorlash talab qilinadi, namunani ko‘rsatish, aniq ko‘rsatmalar va b. Nutqi rivojlanmagan bolalarning erkin diqqat-e’tiborining xususiyatlarini chalg‘itish xarakterida namoyon bo‘ladi. Nutqi sog‘ bolalar uchun “tajriba o‘tkazuvchiga" faoliyati jarayonida chalg‘itishga intilish xarakterli (bolalar tajriba o‘tkazuvchiga qarab, u yoki bu vazifani to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri bajarishganini uning ta’siridan aniqlashga harakat qilishadi), nutqida kamchiligi bo‘lgan bolalar uchun esa ko‘pincha chalg‘itishning quyidagi ko‘rinishlari bo‘ladi: «derazaga qaraydi (atrofga)», «vazifa bilan bog‘liq bo‘lmagan harakatlarni amalga oshiradi». Nutqi og‘ir buzilgan bolalarda erkin diqqat-e’tiborning past darajadaligi ularning shakllanmaganligiga yoki faoliyat tuzilishining buzilishiga olib keladi (O.N.Usanova, Yu.F.Gargusha).

Foydalaniladigan adabiyotlar:

- Ayupova M.Yu. Logopediya T.,2007.
- Денисова О.А.Детская логопсихология. М.,2008ю
- Калягин Б.А. Логопсихология. М.,2005.
- Mo‘minova L.R. , Abidova N.Z. Maxsus psixologiya. T.,2013.
- Трошин О.В., Жулина Е.В. Логопсихология. М.,2005.

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar:

1. Inson ongini ma’lum bir vaqtda bir ob’ektda to‘planishi va yo‘naltirilishi qanday jarayon?
2. Diqqatning beqarorligi, ixtiyoriy diqqatning past darajasi va ularning harakatlarini rejalashtirishdagi qiyinchiliklar qaysi nutq nuqsoniga tegishli?
3. Quyidagi xususiyat “faoliyat tezligining barqarorligi ish jarayonida intilishni pasayishi” qaysi nutq nuqsoniga tegishli.